XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 27 - yanvar VI-77-10-7-92-K/23 Oqdaryo tumani hokimligi

Oqdaryo tumanidagi ziyoratgoh hamda qabriston nomlarini nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2022-yil 31-oktabrdagi 00879-sonli ekspert xulosasiga asosan, Oqdaryo tumanidagi 1 ta ziyoratgoh hamda 32 ta nomsiz qabristonlarni nomlash bo‘yicha ijobiy xulosa berildi. Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, yetmish yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Oqdaryo tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi B.Isaxonovning Oqdaryo tumanidagi ziyoratgoh hamda qabristonlarni nomlash borasida amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2022-yil 31-oktabrdagi 00879-sonli ekspert xulosasiga

asosan:

tumandagi 1 ta ziyoratgoh nomi 1-ilovaga muvofiq;

32 ta nomsiz qabristonlar nomlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi B.Isaxonov, tuman hokimining o‘rinbosarlari (S.Luqmonov, U.Islomov) Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (D.Mamadiyorova) hamda tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda ziyoratgoh hamda qabriston nomlari peshlavhalarini belgilangan tartibda o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman statistika bo‘limi (Z.Ergashov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Samarqand viloyat boshqarmasi Oqdaryo tuman filiali (E.Djurayev), tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Valiyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Isaqulov)ga ziyoratgoh hamda qabriston nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish vazifasi yuklatilsin.

5. Qaror ijrosini ta’minlash uchun tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi B.Isaxonov hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari (S.Luqmonov, U.Islomov), Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (D.Mamadiyorova)lar mas’ul etib belgilansin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Majidov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Qudratov Sh.**

Xalq deputatlari Oqdaryo tuman
Kengashining
2023 yil 27 yanvardagi
VI-77-10-7-92-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Tumandagi ziyoratgoh nomini nomlash bo‘yicha

TAKLIFLAR

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Ziyoratgoh	Bozorjoy MFY	Nomsiz	Mahdumi A’zam	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Xalq deputatlari Oqdaryo tuman
Kengashining
2023 yil 27 yanvardagi
VI-77-10-7-92-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Tumandagi qabriston nomlarini nomlash bo‘yicha

TAKLIFLAR

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Qabriston	Amir Temur MFY	Nomsiz	Qumtepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Qabriston	Dahbed MFY	Nomsiz	Dahbed-2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Qabriston	Galaravot MFY	Nomsiz	Diloromxon, Oyimtepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Qabriston	Galaravot MFY	Nomsiz	Mo‘llatepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Qabriston	Galaravot MFY	Nomsiz	Pastki Boybo‘ta	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Qabriston	Galaravot MFY	Nomsiz	Jarosti	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Qabriston	Go‘zalkent MFY	Nomsiz	Dorivor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Qabriston	Go‘zalkent MFY	Nomsiz	Yassitepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Qabriston	Go‘zalkent MFY	Nomsiz	O‘qlon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

10.	Qabriston	Istiqlol MFY	Nomsiz	Aziztepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Qabriston	Loyish MFY	Nomsiz	Azizbobo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Qabriston	Miyonqol MFY	Nomsiz	Polvontepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Qabriston	Miyonqol MFY	Nomsiz	Tongotar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	Qabriston	Mustaqillik MFY	Nomsiz	Bugajil	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15.	Qabriston	O‘zbekiston MFY	Nomsiz	Chovka	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Qabriston	Olchintepa MFY	Nomsiz	Dehqonko‘mak	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
17.	Qabriston	Oytamg‘ali MFY	Nomsiz	Xilvattepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18.	Qabriston	Paxtaobod MFY	Nomsiz	Shahob	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
19.	Qabriston	Pichoqchi MFY	Nomsiz	Tarnov	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
20.	Qabriston	Sug‘onchi MFY	Nomsiz	Muxlisxon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
21.	Qabriston	Sug‘onchi MFY	Nomsiz	Sultonxon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
22.	Qabriston	Turon MFY	Nomsiz	Qanglitepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
23.	Qabriston	Uchtepa MFY	Nomsiz	Chorshanba	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

24.	Qabriston	Uzunqishloq MFY	Nomsiz	Uzuntepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
25.	Qabriston	Uzunqishloq MFY	Nomsiz	Xoldor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
26.	Qabriston	Uzunqishloq MFY	Nomsiz	Xoldorxo‘ja	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
27.	Qabriston	Uzunqishloq MFY	Nomsiz	Ko‘kterak	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
28.	Qabriston	Yangiobod aholi punkti	Nomsiz	Muzon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
29.	Qabriston	Yangiobod aholi punkti	Nomsiz	O‘rta	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
30.	Qabriston	Yangiqo‘rg‘on MFY	Nomsiz	Qalandarxona-2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
31.	Qabriston	Zarafshon MFY	Nomsiz	Doumsaid	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
32.	Qabriston	Zarafshon MFY	Nomsiz	Imsaid	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.